

## DURBEKKA NISBAT BERILGAN “YUSUF VA ZULAYXO” DOSTONING YOZILISH TARIXIGA OID AYRIM MUNOZARALI MASALALAR

**Oripov Jahongir Raupovich**

*Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Durbekka nisbat berilgan, XV asrda Balxda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” dostoning yozilish tarixiga oid ayrim bahsli masalalar haqida soʻz yuritiladi. Bu boradagi adabiyotshunos olimlarning fikrlari oʻrtaga tashlanadi. Dostonning qoʻlyozma nusxalari qiyoslanib, ulardagi matniy tafovutlarning asar haqidagi faktik maʼlumotlarning turlicha boʻlishiga sabab boʻlganligi aniqlashtiriladi.

**Kalit soʻzlar:** Durbek, Yusuf va Zulayxo, Fitrat, Mehmed Fuod Koʻpruluzoda, Edgard Blochet Halide Dolu, Zeynep Korkmaz, Chigʻatoy tili, Chigʻatoy adabiyoti, matniy tafovutlar.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются некоторые дискуссионные вопросы, связанные с историей создания поэмы «Юсуф и Зулейха», приписываемой Дурбеку и созданной в XV веке в Балхе. Анализируются и сопоставляются научные взгляды литературоведов, посвящённые данной проблеме. Кроме того, проводится сравнительное исследование сохранившихся рукописных списков поэмы, в результате которого устанавливается, что текстологические различия между ними стали одной из причин неоднозначной интерпретации истории создания произведения, его авторства и некоторых фактических сведений о нём.

**Ключевые слова:** Дурбек, Юсуф и Зулейха, Фитрат, Мехмед Фуад Кёпрюлю, Эдгар Блоше, Халиде Долу, Зейнеп Коркмаз, чагатайский язык, чагатайская литература, рукописи, текстологические различия.

**Abstract.** This article examines several controversial issues concerning the history of the composition of the epic “Yusuf and Zulaykha”, attributed to Durbek and believed to have been written in Balkh in the fifteenth century. The study presents and comparatively analyzes the scholarly views of literary researchers on this subject. In addition, the extant manuscript copies of the epic are compared, revealing that textual variations among them have contributed to differing interpretations regarding the work’s history, authorship, and certain factual information related to it.

**Keywords:** Durbek, Yusuf and Zulaykha, Fitrat, Mehmed Fuad Köprülü, Edgard Blochet, Halide Dolu, Zeynep Korkmaz, Chagatai language, Chagatai literature, manuscripts, textual variations.

Asl manbasi muqaddas kitoblar boʻlgan Yusuf qissasi dunyo adabiyoti tarixida keng tarqalgan sayyor mavzuga aylangan. Musulmon Sharq adabiyotida ushbu

mavzuda ham nasrda ham nazmda yozilgan ko‘plab adabiy namunalar mavjud. “Yusuf va Zulayxo” mavzusida alohida asar yozgan ijodkorlar Abdulmuayyad Balxiy, Baxtiyoriy Firdavsiy kabi shoirlar bo‘lganligi aytiladi. Keyinchalik XI asr boshlarida buxorolik shoir Shahobiddin A‘mak ham “Yusuf va Zulayxo” dostonini yaratadi.<sup>1</sup> Bu mavzudagi asarlarning aksariyati arab va fors tillarida yozilgan. Yusuf va Zulayxo mojarolarini o‘zbek tilida qalamga olgan ilk asar esa Qul Alining “Yusuf va Zulayxo” dostoni ekanligi aytiladi.<sup>2</sup> Tadqiqot obyekti bo‘lgan “Yusuf va Zulayxo” dostonining muallifi ham o‘z asarini yozishda forscha bir nasriy payg‘ambarlar qissasidan ta’sirlanganini aytadi: *“Nasr edi bu qissa dog‘i pors, Erdi anga jon ko‘zi nazzorasi”*<sup>3</sup> XV asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” dostoni Temuriylar davri adabiyotining nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Chunki Yusuf payg‘ambar hayotini aks ettirgan she‘riy asarlar o‘zbek adabiyotida sanoqli. “Ahsan ul-qisas” ya’ni qissalarning eng go‘zali bo‘lgan ushbu mavzuda doston yozish Aisher Navoiyning ushalmagan adabiy niyatlaridan biri ekanligi ham bu mavzuning qanchalik qiymatli ekanligini ko‘rsatadi. “Yusuf va Zulayxo” dostoni bugunga qadar ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan hamda bu asarning muallifi, yozilish tarixiga oid turli xil fikrlar o‘rtaga tashlangan. Ushbu bahsli masalalar bugungi kungacha davom etib kelmoqda. Birinchidan, asarning yozilish tarixi borasida ikki xil qarash mavjud: birinchi qarashga ko‘ra asar hijriy hijriy 812-yilda (milodiy 1409-1410-yillar) yozilgan. Mazkur fikrni ilgari suruvchi adabiyotshunoslar dostonidagi quyidagi baytni asos qilib olishadi:

Zod edi tarix taqi he-yu dol,  
Muddati hijratdin o‘tub moh-u sol.<sup>4</sup>

Ushbu baytda dostonning yozilish tarixi keltirilgan bo‘lib abjad hisobi bo‘yicha zod – (ض) 800, he – (ح) 8, dol – (د) 4 raqamlarini ifodalab, ularning umumiy yig‘indisi 812 ni tashkil qiladi va bunda asarning hijriy 812-yilda (milodiy 1409-1410-yillar oralig‘ida) yozilganligi ayonlashadi.

Dostonning yozilish tarixi bilan bog‘liq ikkinchi qarashga ko‘ra esa doston hijriy 874 (milodiy 1469-yilda) yozilgan. Bunda ham aynan yuqoridagi dostonning yozilish tarixini aks ettirgan bayt asos qilib olingan. Ammo Turkiya, Berlin va Parijdagi nusxalarda ushbu bayt quyidagicha yozilgan:

Muddati hijratdin o‘tub moh-u sol,  
Zod edi tarix dag‘i ayn-u dol.<sup>5</sup>

Yuqoridagi matnga ko‘ra abjad hisobi bo‘yicha zod – (ض) 800, ayn – (ع) 70, dol – (د) 4 bo‘lib, umumiy yig‘indisi 874ni tashkil qiladi. Bu tarix milodiy 1469-yilga to‘g‘ri keladi. Ko‘rinib turganiidek ushbu baytda uchraydigan matniy tafovut “he” (ح)

<sup>1</sup> Н. Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. I китоб. 272-бет

<sup>2</sup> R.Vohidov, H.Eshonqulov. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. Adabiyot jamg‘armasi. 160-bet

<sup>3</sup> Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. Нашрга тайёрловчи Ш.Шарафиддинов. Тошкент. ФАН: 1959. 22-бет

<sup>4</sup> Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. ФАН 1959.

<sup>5</sup> Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. ФАН 1959.

– 8 va “ayn” – (ع) 70 harflari o‘rtasida yuzaga kelmoqda. “Yusuf va Zulayxo” dostoni haqida birinchilardan bo‘lib ma’lumot bergan Abdurauf Fitrat o‘rgangan nusxada ham ushbu bayt Zodi edi tarix taqi he-yu dol, Muddati hijratdin o‘tub moh-u sol tarzida bo‘lgan. Bunga Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobni o‘rganganimizda amin bo‘lamiz.

XV asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” dostoniga oid tadqiqotlar ayrim turk olimlarining faoliyatida ham mavjud. Mazkur olimlardan birinchisi mashhur turk adabiyotshunosi, tarixchi va davlat arbobi Mehmed Fuod Ko‘pruluzodadir (1890-1966). U Turkiya va jahon adabiyotshunoslarini birinchilardan bo‘lib Durbekning “Yusuf va Zulayxo” dostoni bilan tanishtirgan tadqiqotchilardan hisoblanadi. Mehmed Fuod Ko‘pruluzoda tomonidan tuzilgan “Islom Ensiklopediyasi”ning “Chig‘atoy adabiyoti” moddasida Durbek va uning “Yusuf va Zulayxo” dostoni haqida quyidagi ma’lumotlar beriladi: “1928-yildan avval Turkistonda topilgan “Yusuf va Zulayxo” nomli masnaviy (doston) ham Durbek ismli balxlik shoir tomonidan Sulton Shohrux Mirzoga atab yozilgan. Turk aristokratiyasiga mansub ekanligini tushunishimiz mumkin bo‘lgan bu shoir (Durbek) nomiga boshqa hech bir manbada duch kelmaymiz”<sup>6</sup> Mehmed Fuod Ko‘pruluzoda bu boradagi fikrlarida Abdurauf Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” asarining ta’siri katta. Ko‘pruluzodaning “Islom Ensiklopediyasi”da keltirilgan faktlarda aynan Fitratning ma’lumotlariga tayanganini aytishimiz mumkin. Ushbu ensiklopediyada keltirilgan qiziq ma’lumotlardan yana biri asarning Sulton Shohrux Mirzoga bag‘ishlanganligidir. Shohrux Mirzoning hukmdorlik yillari 1405-1447-yillar ekanligini inobatga olsak, asar mazkur yillar oralg‘ida yozilganligini aytishimiz mumkin. Bundan ko‘rinadiki, Fuad Ko‘pruluzoda ham dostonning yozilish tarixi borasida Abdurauf Fitrat bilan hamfikir bo‘lgan. Asarning Sulton Shohrux Mirzoga bag‘ishlanganligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, biz asarning O‘z. FA Sharqshunoslik instituti fondidagi hamda Buxoro muzey-qo‘riqonasidagi qo‘lyozma nusxalarini o‘rgandik va dostonning Turkiya, Germaniya, Fransiyadagi nusxalariga oid tadqiqotlar, transkripsion matnlarni ko‘zdan kechirdik. Ammo ularning hech birida dostonning Shohrux Mirzoga bag‘ishlanganligiga ishora qiluvchi baytlarga duch kelmadik. Hatto Istanbul, Berlin va Parijdagi nusxalarda ham Temuriyzodalardan faqatgina sulton Husayn Boyqaro madhi keltirilganligi o‘rgandik. Ko‘pruluzodaning o‘zi ham dostonning Shohrux Mirzoga atab yozilganligi haqidagi fikrlarida qaysi manbalarga yoki nimalarga asoslanganligini aytmagan. Ammo Ko‘pruluzoda tomonidan keltirilgan ushbu ma’lumotlar qisqa bo‘lsa ham Turkiya adabiyotshunoslari tomonidan XV asrda Balxda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” dostoniga qiziqishning paydo bo‘lishiga va bu borada boshqa ko‘plab tadqiqotlarning yaratilishiga turtki bo‘ldi. Buni Turkiyada “Yusuf va Zulayxo” dostoni haqida yozilgan barcha maqola va dissertatsiyalarda Mehmed Fuod Ko‘pruluzodaning “Islom Ensiklopediyasi”ga murojaat qilinganligida ham ko‘rishimiz mumkin. Turk

<sup>6</sup> Fuad Köprülü. İslam Ansiklopedisi. 1945 III 294-s



adabiyotshunoslarining mazkur tadqiqotlari adabiy jamoatchilikning, xususan o'zbek adabiyotshunoslarining ham dostonning Istanbul, Parij va Berlinda saqlanayotgan nusxalari bilan tanishishiga vosita bo'lib xizmat qildi.

Mashhur fransuz sharqshunosi va kutubxonachisi Edgard Blochet 1932-1933 yillarda Parij muzeyida saqlanayotgan asarlarning katalogini yaratadi. Bu katalog "Milliy kutubxonadagi turkiy qo'lyozmalar katalogi" deb nomlanib 2 jild holatida nashr qilingan. Bu katalogning 2-jildida XV asrda Balxda yozilgan "Yusuf va Zulayxo" dostonining Parijdaki nusxasi haqida ma'lumot beradi.

Yana bir turk olimasi Xolida Doluning "Yusuf va Zulayxo" dostoni haqida 1952-yil "Turk tili va adabiyoti" jurnalida "Yusuf hikoyasi haqida bir qancha so'z va ba'zi turkcha nusxalar" nomli maqolasi e'lon qilinadi.<sup>7</sup> Olima Yusuf qissasini aks ettirgan asarlar haqida yozgan maqolasida bu mavzuda yozilgan 5 ta asar nusxasi haqida ma'lumot beradi va ularni quyidagicha nomlaydi: 1) "Halil o'g'li Ali" nusxasi, 2) "Sula Faqih" nusxasi, 3) "Hamidiy" nusxasi, 4) "Durbek" nusxasi va "G'arib" nusxasi. Mazkur maqolada Xolida Dolu biz o'rganayotgan "Yusuf va Zulayxo" dostonining 2 ta nusxasini "Hamidiy nusxasi" va "Durbek nusxasi" sifatida nomlab ular haqida ayrim nazariy ma'lumotlar hamda "Homidiy nusxasi"dan ba'zi parchalarni keltirib o'tadi. Ushbu nusxalarning aynan bitta asar ekanligi ayon bo'lsa-da, maqolada muallif unda "Durbek nusxasi"ning to'la shakli bo'lmaganligi, bu borada faqat Abdurauf Fitrat keltirgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolganligi uchun bunday xulosaga kelishga shoshilmaydi. Bu haqida muallifning o'zi shunday deydi: "Abdurauf Fitrat tomonidan Durbekka nisbat berilgan "Yusuf va Zulayxo" nusxasini biz tomonimizdan tadqiq qilingan Hamidiy nusxasi bilan qiyoslashni lozim deb bildik. Natijada ulardagi ayrim baytlarning bir xil ekanligi ko'zga tashlandi. Faqat Durbek nusxasining to'liq matni qo'limizda bo'lmaganligi uchun ikki asarning o'xshashliklari haqida to'liq qanoat hosil qilish imkonsiz bo'lib qoldi." Mazkur ikki nusxa asosida Xolida Dolu "Yusuf va Zulayxo" dostoni haqida asar muallifi va yozilish tarixiga oid ikki xil faktik ma'lumotlarni keltiradi. Masalan, dostonning birinchi nusxasiga ko'ra asarning muallifi Homidiy ismli shoir bo'lib, asar hijry 874 (milodiy 1469-yida) yozilganligini aytsa, ikkinchi nusxaga ko'ra dostonning muallifi Durbek, yozilish tarixi esa hijriy 812-yil (milodiy 1409-1410-yillar) ekanligi aytadi. Buning sababi esa yuqorida aytganimizdek asarning yozilish tarixiga oid baytda "he" – (ح) 8 va "ayn" (ع) – 70 harflari harflari bilan bog'liq matniy tafovutning mavjudligidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, dostonning qachon yozilganligiga oid aniq natijaga erishilsa bu asar borasidagi ko'plab boshqa munozarali bahslarning hal qilinishiga ham turtki bo'ladi. Buning uchun mavjud barcha nusxalarning bir joyda to'planib dostonning ilmiy-tanqidiy matni yaratilishi kerak deb o'ylaymiz.

<sup>7</sup> Halide Dolu. Yusuf Hikayesi Hakkında Birkaç Söz ve Bazı Türkçe Nüshalar. Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi. 1952. Cilt: 4, s 420-455

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Н. Маллаев. Ўзбек адабиёти тарихи. I китоб. 272-бет
2. R.Vohidov, H.Eshonqulov. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent. Adabiyot jamg‘armasi. 160-bet
3. Дурбек. Юсуф ва Зулайхо. Нашрга тайёрловчи Ш.Шарафиддинов. Тошкент. ФАН: 1959.
4. Fuad Köprülü. İslam Ansiklopedisi. 1945 III 294-s
5. Halide Dolu. Yusuf Hikayesi Hakkında Birkaç Söz ve Bazı Türkçe Nüshalar. Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi. 1952. Cilt: 4, s 420-455